



TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING O'RGANILISHI

*Latifova Laylo**Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Tarix va Filologiya fakulteti Tarix
yo 'nalishi 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada temuriylar davriga qiziqish ortib borishi natijasida turli davrlarda turli xil olimlar tomonidan o'rganildi. Sovet davrida Temuriylar davrini B. Zaxoder, B. G. G'ofurov, A. Yu. Yakubovskiy kabi olimlar turli taqdiqot orqali o'rganishdi. Bundan tashqari xorijlik olimlarni ham bu davr befarq qoldirmadi. H.R. Romer, L.A.Zimin, Rui Gonzales de Klavixo, M.Ye.Masson tomonidan o'rganilgan va bir qancha asarlar yozib qoldirilgan. Temuriylar davriga bo'lgan qiziqish Mustaqillik yillarida oshib bordi A.Muhammadjonov, Turg'un Fayziyev, SH.M.O'ljayeva, N.Norqulov, A. Rahmatullayeva, B. Usmonov kabi olimlar tomonidan o'rganildi. Shuning natijasida ensiklopediya, monografiyalar, kitoblar yaratildi. Temuriylardavrini olimlar hozirgi kungacha o'rganib kelishmoqda.

Kalit so'zlar: Ilm – fan, madaniyat, arxitektura, barqarorlik, iqtisodiyot, sovet olimlari, Xorijlik olimlar, Mustaqillik davri, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar.

KIRISH. Temuriylar davri O'rta Osiyo, xususan, hozirgi O'zbekiston hududi tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda siyosiy barqarorlik, markazlashgan davlat boshqaruvi, ilm-fan, madaniyat, arxitektura va iqtisodiyot misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari - xususan, Mirzo Ulug'bek singari yirik arboblarning faoliyati tufayli bu davr O'rta asr Sharq uyg'onishining yorqin namunasi sifatida tarixda muhrlanib qoldi.

Bugungi kunda Temuriylar davrining o'rganilishi bir necha sababga ko'ra dolzarb hisoblanadi. Birinchidan, bu davrda yaratilgan boy ilmiy, madaniy va me'moriy meros bizning milliy o'zligimizni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.



Ikkinchidan, Temuriylar tomonidan asos solingan davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, harbiy strategiya va madaniy siyosat zamonaviy davlat qurilishi uchun ham saboq bo‘la oladi. Uchinchidan, Temuriylar davridagi ilm-fan va ta’limning rivoji, ayniqsa Mirzo Ulug‘bekning astronomiya va matematika sohasidagi ishlari, bugungi yosh avlod uchun ilhom manbaidir.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda Amir Temur va temuriylar tarixi va uning muhim taraqqiyot bosqichlari nihoyatda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev tariximiz haqida quyidagilarni aytadi - “Hamma o‘z tarixini ulug‘laydi. Lekin bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo‘q. Bu merosni chuqur o‘rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam tariximiz haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishi, katta ma’naviyat olib ketishi zarur”¹

Shu sababli Temuriylar davrini chuqur o‘rganish, bu davr tajribasidan saboq chiqarish, uni yosh avlodga to‘g‘ri yetkazish nafaqat tarixiy xotirani saqlash, balki milliy g‘urur va ma’naviyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Mavzuning bugungi kunda ham dolzarbliги uning tarixiy merosi orqali milliy qadriyatlarimizni anglashda va ular asosida taraqqiyot yo‘lini belgilashda namoyon bo‘ladi. Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlat boshqaruvi tizimi O‘zbek davlatchiligining tarixiy ildizlarini ko‘rsatadi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonning siyosiy rivojlanish yo‘lida Temuriylar davri tajribasi o‘rganilmoqda va undan ilhom olinmoqda. Temuriylar davri “Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichi” deb ataladi. Bu davrning o‘rganilishi nafaqat O‘zbekiston, balki butun islom sivilizatsiyasi va jahon ilm-fani rivoji tarixini chuqur anglash imkonini beradi².

¹Мирзиев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б.13.

²Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Амир Темур, Темурийлар, Мирзо Улугбек мақолалари. – Т.: ЎзМЭ ДУК, 2000 - 2005.



ASOSIY QISM: Temuriylar tarixini o‘rganish o‘sha vaqtidan to bugungi kungacha tadqiqotchilar markazida bo‘lib keng o‘rganilgan. Biz tadqiqot ishimizda uni uch davrga bo‘lib, ko‘rib chiqamiz.

Sovet tarix fanida Amir Temur va Temuriylar davrini o‘rganish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, B.Zaxoder³, B.D. Grekov va A.Yu.Yakubovskiy⁴, B.G.G‘ofurov⁵, I.Mo‘minov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida Amir Temur hamda Temuriylar davridagi ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot yoritilishida katta hissa qo‘shganlar.

So‘nggi yillarda Temur va Temuriylar davriga bag‘ishlangan qator kitoblar nashr etildi. Temurshunoslik yo‘nalishi rivojida akademik V.V. Bardoldning faoliyati salmoqli o‘rin tutadi. XX - asr boshida V.V. Bartold tomonidan yozilgan Amir Temur va Temuriylar haqidagi ma’lumot 1910 - yilda ensiklopediyaga kiritilgan bo‘lib, ushbu hodisa ilmiy tadqiqot muhitida Amir Temur shaxsiga bo‘lgan qiziqishi yanada orttirildi. V.V. Bartoldning tadqiqotlari Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunoslida muhim o‘rin egallaganligi mavzuning turli jihatlariga doir yaratilgan. XX - asr boshlarida Temuriy sulola vakillari hayoti va merosi mavzulardan biri Amir Temur vafoti va uning dafn etilishi masalasi bo‘ldi. Masalan A. Ryabin, N.I.Veselovskiy va V.L.Vyatkinning maqolalarida Amir Temur vafoti tafsilotlari, qabrtoshi va undagi matn, maqbarasining qurilishi tarixi yoritildi. Xorijlik olimlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixi bir necha asrlardan beri keng o‘rganib kelinmoqda. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda Temuriylar sultanati tarixiga oid bir qator masalalar jahon tarixining bir qismi sifatida tadqiq etilib, ilmiy xulosalar bildirilgan. Xorijiy mualliflar asosan Amir Temur va sulolaning boshqa yirik vakillari shaxsi, markazlashgan davlat barpo etilishi, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot, temuriy hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar oqibatida separatizmning kuchayib borishi kabi masalalariga katta e’tibor qaratganlar. Jahon

³ Заходер Б. Империя Тимура // Исторический журнал. М., 1941. №6. С. 78-98

⁴ Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М. -Л., 1950.

⁵ Гафуров Б. Г. История таджикского народа. М., 1955. Т.И. С.32; Shu muallif. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. И. Душанбе: Ирфон, 1989. С. 210-212



temurshunosligining rivojiga fransuz sharqshunoslari katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Ulardan biri Bartelemi Erbeloning - Par la Compagnie des Libraires (Sharq kutubxonasi) 4 asarida sharq mamlakatlari tarixi haqida so'z yuritilganda Amir Temur to'g'risida ham hikoya qilinadi. Asarda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga keng to'xtalib otilgan.

H.R. Romer qalamiga mansub - Temur Eronda nomli tadqiqotda ham Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishga qo'shilgan muhim hissalardan biridir. Asarda Amir Temur va temuriylar sulolasini boshqaruvida bo'lgan Eron tarixiga ko'proq e'tibor qaratilgan bo'lsa ham, undan Amir Temurning o'gli Mirzo Umarshayx va Mirzo Sulton Abu Said farzandi Mirzo Umarshayxlar Farg'ona viloyatida hokimlik qilganligi, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati bilan bog'liq vodiyya sodir bo'lgan ayrim voqealar o'rinni olgan. Muallifning Amir Temur tomonidan Eronni hududlarini zabit etilishi va uning keyinchalik sulola vakillari tomonidan boshqarishiga oid asosli ilmiy xulosalari ko'plab temurshunoslari tomonidan etirof etilgan.

Markaziy Osiyoning Temuriylar davri tarixiga oid ma'lumotlar o'sha davrda yozilgan tarixiy - geografik, tarixiy va boshqa asarlar, hujjatlar, tazkiralar, maqomotlar, insho - yozishmalar kabilardan o'rinni olgan. Yaxlit yozma manbalar - Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Muiniddin Natanziyning "Muntaxab at-tavorix", Hofizi Abruning "Geografiya" va "Zubdat at-tavorixi Boysung'uriy", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fasih Ahmad Xavofiyning "Mujmali Fasihiy", Ibn Arabshohning arab tilida yozilgan "Ajoyib al-maqdur fi tarixi taymur", Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn", Mirxondning "Ravzat as-safo", Xondamirning "Habib as-siyar" asarlaridir. Shu davrda Samarqandga Ispaniyadan elchi bo'lib kelgan Rui Gonzales de Klavixoning kundaligida ham qimmatli tarixiy – geografik ma'lumotlar bor.⁶

⁶ Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406 йиллар).

Таржимон: Тогаев О. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б



Temur va Temuriylar davri tarixining yoritishga nisbatan saqlanib kelgan salbiy yondashuv bu manbalarni keng o'rganishga to'sqinlik qildi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat bo'lishi sharofati bilan Temuriylar davriga bo'lgan munosabat ham tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. 1994 - yilda jahon miqyosida buyuk olim Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi nishonlanganligi va 1996 - yilda sohibqiron Amir Temur tug'ilgan kunining 660 yilligi nishonlanishi buning yorqin dalilidir.

L.A.Ziminning "Temurning o'limi tafsilotlari" maqolasida Amir Temurning o'limi yuzasidan olib borilgan antropologik izlanish natijalari aks etdi. XX - asr boshlarida Temuriy sulola vakillari hayoti va merosi mavzusi tadqiqotchilar faoliyatida o'rinn oldi. Masalan, D.N.Logofetning maqolasida Amir Temur kutubxonasi, uning ilm - fan va madaniyatga qo'shgan hissasi haqida fikr yuritilgan. Boshqa tadqiqotlardan farqli ravishda, ushbu maqolada Amir Temur shaxsi asosan, ijobiy jihatdan yoritilgan.

Ushbu davrda faoliyat olib borgan olimlardan M.Ye.Massonning taqdiqotlarini alohida ta'kislab o'tish joiz. Uning "Go'ri Amir maqbarasi - Temuriylar xilxonasi", Amir Temurning "Davlatobod" bog'i joylashgan o'rni Amir Temur va Temuriylar amalga oshirilgan islohotlar bunyodkorlik faoliyati yoritilgan. Mustaqillikka erishganimizdan keyin Temuriylar davriga qiziqish yanada kuchaya boshladi. Xususan A.Muhammadjonov muallifligida 1994 - yilda nashr etilgan "Temur va Temuriylar sultanati" asari tarixiy tadqiqot natijalariga asoslangan holda, turli mahalliy manbalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida yozilgan.⁷ Muallif Movorounnahrdagi siyosiy vaziyat va sarbadorlar harakati tafsilotlari, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi arafasidagi siyosiy vaziyatni yoritib bergen. Temurshunoslik sohasi rivojiga Turg'un Fayziyev o'z asarlari bilan munosib hissa qo'shganini e'tirof etish kerak.⁸ Ushbu tadqiqotchi Sohibqiron Temurning hayot yo'li va sharajasi haqida yangi ma'lumotlar asosida katta kitob yozdi. Mustaqillik yillarida "Temur tuzuklari" ni o'rganish nafaqat asliyatda, balki boshqa tillarda

⁷Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 896.

⁸Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Ёзувчи, 1994. – Б. 222



ham chop etishda jiddiy ishlar olib borgan olimlardan biri Akademik Bo‘riboy Ahmedov boldi. U asarning 1991 - 1996 - yillar nashrlariga batafsil so‘zboshilar yozdi, atroflicha izohlar ilova qildi. Mustaqillik yillarda Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligiga doir tadqiqotlar amalga oshirildi va bir qancha kitoblar nashr qilindi. Jumladan, 1996 - yilda L. Keren va A. Saidov tomonidan “Amir Temur va Fransiya” asari chop etildi. Mazkur kitob Amir Temur va Temuriylar sulolasi tarixining fransuz sharqshunoslik maktabi tomonidan o‘rganishiga bag‘ishlangan. Bundan tashqari F. Shamukaramovning “Mirzo Ulug‘bekning hayoti va ijodi XX - asr tarixshunosligida” deb nomlangan monografiyasida XX - asr boshlaridan to 2012 - yilga qadar bo‘lgan uch tarixshunoslik davrida buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek hayoti hamda faoliyatini o‘rganish dinamikasi ko‘rib chiqiladi.

N.Norqulovning ”Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar“ nomli risolasida Amir Temur va Temuriylar davlati sohibqironning madaniyat sohasidagi ishlari, Amir Temurning ilm - fanga ko‘rsatgan e’tibori, Kamoliddin Behzod va uning tasviri san’at maktabi hamda ushbu davrga oid turli manbalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.⁹ O‘zbekiston tarix fanida Amir Temur va Temuriylar davri tarixshunosligida turli davrlari va jihatlari tahlil qilingan maxsus tadqiqotlar amalga oshirilganligini alohida qayd qilish joiz.

SH. M. O‘ljayevaning nomzodlik dissertatsiya sovet tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar davrining yoritilishi tahlil qildi.

D.Abidjonova o‘z tadqiqotida ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda Amir Temur hukmronligi davri yoritilishi va shu bilan bog‘liq muammolarni o‘rgangan. Bu esa Temuriylar tarixiga xorijlik tadqiqotchilarni munosabatini yanada aniqroq ko‘rish uchun asos bo‘lgan. A. Rahmatullayevaning tadqiqoti Amir Temur hayoti va faoliyatining 1991-2009 - yillarda O‘zbekistonda o‘rganilishiga bag‘ishlangan. Mazkur dissertatsiyada Amir Temur hayotiy faoliyatiga doir manbalar va tarixiy ma’lumotlar tahlil qilingan.

B. Usmonovning “Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi” nomli doktorlik dissertatsiyasida Amir “Temur

⁹ Норкулов Н. Темурийлар даври маданий тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996. – Б .105



va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tarixi ” nomli doktorlik dissertatsiyasida Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy tarixi o‘rganilgan. Unda numizmatik materiallarni yozma manbaar bilan solishtirish orqali XIV asrning 40 - yillarida vodiyning g‘arbiy qismidagi Xo‘jand va Marg‘ilon shaharlari Movorounnahr davlati , Axsi va Andijon shaharlari joylashgan sharqiy qismi va Mo‘g‘uliston tarkibiga kirganligi asoslanib, Farg‘ona vodiysining Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlat tarkibiga kiritilish boshqichlari , vodiyning ushbu davrdagi ma’muriy holati, bu yerda kechgan siyosiy jarayonlar, Movorounnahr hukumatining Mo‘g‘uliston davlati bilan munosabatlarida vodiyning tutgan o‘rni bo‘yicha bir qator e’tiborga molik fikrlar bildirilgan¹⁰.

X.T. Fayziyevning “Temuriylar sultanatida Shohrux Mirzoning o‘rni va uning tashqi siyosati” nomli dissertatsiyasida XV asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Eronning siyosiy tarixi, ayrim shaxslar, xususan, Shohrux Mirzo faoliyati orqali yoritib berilgan.

Xulosa Amir Temur XIV - asr oxiri – XV -asr boshlarida o‘ziga xos siyosiy tizimni yaratdi, markazlashgan kuchli davlatni barpo etdi va uni "Tuzuklari Temuriy"

¹⁰Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида. – Фарғона: Фарғона, 2019. – Б. 188



nomli siyosiy-huquqiy asosda boshqardi. U kuchli tartib-intizom, iqtidorli shaxslarni qo'llab-quvvatlash, adolatli boshqaruv orqali qisqa vaqt ichida dunyoning katta qismini birlashtira oldi. Uning faoliyati nafaqat harbiy yurishlar bilan, balki iqtisodiyotni tiklash, savdo yo'llarini himoya qilish va me'morchilikni rivojlantirish bilan ham bog'liqdir.

Amir Temur va Temuriylar davri o'zbek hamda jahon tarixida chuqur iz qoldirgan muhim davrlardan biridir. Bu davr siyosiy, harbiy, madaniy va ilmiy yutuqlari bilan ajralib turadi. Amir Temur nafaqat zabardast sarkarda va siyosatchi sifatida, balki markazlashgan davlatni barpo etgan buyuk davlat arbobi sifatida tarix sahnasida yorqin nom qoldirdi. Uning vorislari - Temuriylar sulolasi vakillari - ayniqsa, ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyoti yo'lida muhim ishlar olib bordilar. Ulug'bek kabi olimlar Sharq Uyg'onishiga zamin yaratdilar. Amir Temur va Temuriylar davrini o'rganish orqali biz nafaqat tarixiy haqiqatlarni anglaymiz, balki milliy g'urur va o'zlikni anglash tuyg'usini ham chuqurlashtiramiz. Bu davrni chuqur o'rganish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi. Shu sababli Temuriylar merosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, uni o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib qilish har birimizning burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиеев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б.13.
2. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Амир Темур, Темурийлар, Мирзо Улуғбек мақолалари. - Т.: ЎзМЭ ДУК, 2000 - 2005.
3. Заходер Б. Империя Тимура // Исторический журнал. М., 1941. №6. С. 78-98
4. Греков Б. Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М.-Л., 1950.
5. Гафуров Б. Г. История таджикского народа. М., 1955. Т. I. С. 32; Shu muallif. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Кн. И. Душанбе: Ирфон, 1989. С. 210-212



6. Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёхат кундалиги (1403-1406 йиллар). Таржимон: Тогаев О. - Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 264 б
7. Мухаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. - 896.
8. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. - Тошкент: Ёзувчи, 1994. - Б. 222
9. Норқулов Н. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. – Урганч: Хоразм, 1996. - Б .105
10. Усмонов Б. Фарғона водийси Амир Темур ва Темурийлар даврида. – Фарғона: Фарғона, 2019. - Б. 188